

**Ingliz tili fanidan umumiy o'rta ta'lim
maktabining o'quv dasturi**

Uqtirish xati

Ingliz tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, o'quv dasturi jamiyat va davlat manfaatlari va talablariga mos kelmog'i hamda javob bermog'i lozim.

Mustaqil Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xalqaro aloqalar, savdo-sotiq, turizm va mamlakatlar o'rtasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalar rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan bir paytda uning kelajagini yaratuvchi yoshlarga xorijiy tillarni puxta o'rgatish va xorijliklar bilan muloqot davomida o'ziga taalluqli masalalarni erkin muhokama qila olish, umuman og'zaki yoki yozma shaklda muloqot qilishni o'rgatish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflarida ingliz tilini o'qitish ikki bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich – nutq faoliyatini ta'minlaydigan ko'pgina malaka va ko'nikmalarning asosi ingliz tilini o'qitishning birinchi bosqichi (5-6 sinflar)da shakllantiriladi. Ta'limning dastlabki ikki yili davomida o'quvchilar tinglab tushunish va gapirish (og'zaki nutq) ni o'rganishadi, bunda o'qish va yozuv o'qitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. E'tibor, avvalo, o'rganilayotgan tilning fonetik xususiyatlariga qaratiladi. Talaffuz, ayniqsa, ohangni to'liq o'zlashtirish, urg'uni to'g'ri qo'yish ustida olib boriladigan mashqlar ikkinchi bosqichda ham davom ettiriladi. Birinchi bosqichning ta'limiy vazifasi o'rganilishi lozim bo'lgan grammatik hamda leksik materiallarni o'zlashtirib, xotirada saqlash va ularni namuna asosida qayta tinglab, takrorlashni taqazo etadi.

Tarjima muhim ko'nikma bo'lib, muntazam ravishda shakllantirib borilishi kerak.

Birinchi bosqichda so'zlarni tarjima qilish juda foydalidir. So'zlarni

tarjima qilayotganda ingliz tili va ona tilidagi, yoki ona tili va ingliz tilidagi soʻzlar oʻrtasida nomutanosibliklar yuzaga kelishi kuzatiladi. Shu yoʻsinda oʻquvchilarda tarjima soʻzni emas, balki maʼnoni fahmlash degan tushuncha shakllanadi.

Birinchi bosqichda oʻquvchilar quyidagi bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻladilar.

5-sinf

- ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarning nomlarini;
- ingliz tilida sevib kuylanadigan qoʻshiq va sheʼrlarni;
- ingliz tilida salomlashish, tanishish, tanishtirish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, kechirim soʻrash, iltimos qilish va hol-ahvol soʻrashda qoʻllaniladigan kommunikativ iboralarni;
- ingliz tilida soʻzlashadigan mamlakatlarning uy va yovvoyi hayvonlarini;
- ingliz tilida soʻzlashadigan mamlakatlarda qoʻllaniladigan ismlarni;
- ingliz tilida oʻquv qurollari va oʻquv predmetlarining nomlarini.

Fonetik materiallar

- alfavit;
- unli va undosh tovushlarni nutq jarayonida farqlash va ularni talaffuz qilish;
- unli tovushlarning qisqa va choʻziq talaffuz qilinishi;
- undoshlarning jarangli va jarangsizligi;
- yordamchi soʻzlarning mustaqil soʻzlar bilan qoʻshilib oʻqilishi;
- darak, soʻroq va undov gaplarda ohang;
- soʻzlarda urgʻu;
- gaplarning maʼnoli guruhlarga toʻgʻri boʻlinishi;
- orfoepiyaning asosiy qoidalari;
- diftong va triftonglar.

6 - sinf

- ingliz tilida soʻzlashadigan mamlakatlarning milliy taomlari va salqin ichimliklarning nomlarini, ovqatlanish va ovqatlanishda qoʻllaniladigan iboralarni;

- meva va sabzavotlarning nomlarini;
- ba'zi bir milliy ovqatlarni pishirish usullarini;
- taomlarni tanlash va ularga pul to'lashda qo'llaniladigan iboralarni qo'llay olish;
- ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarning poytaxtining nomi va u haqidagi asosiy ma'lumotlarni;
- O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQShning yer maydoni va aholisi haqidagi qisqacha ma'lumotni;
- tabiatini;
- yaqin qarindoshi yoki do'stini tug'ilgan kuni bilan tabriklashni;
- maktabda o'qitiladigan o'quv fanlari nomlarini.

Fonetik materiallar

- yordamchi so'zlar (artikllar, predloglar, bog'lovchilar, ba'zi bir olmoshlar) va jumalarda urg'u;
- qo'shma gaplarda ohang.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqich (7-9 sinflar)da o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuvni maqsad maqomida egallash davom ettiriladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar o'z nutqlarida ayrim qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, ya'ni ularda o'rganilgan so'z va iboralarni grammatik qonun-qoidalarga asosan qo'llash muammosi vujudga keladi. Bu esa o'quvchilardan til materiallarini tartibga tushirish, umumlashtirish va ularni zarur bo'lgan joyda qo'llash malakasini talab qiladi. O'qilgan va tinglangan matnlar asosida nutq ko'nikmalari rivojlantiriladi. Nutqning hamma turlarida mustaqil ishga katta ahamiyat berilgan holda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Yuqori sinflarda tarjima ona tili va ingliz tilidagi lingvistik tushunchalarning ifodalanish usullarini taqqoslash maqsadida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida kelasi zamon qanday ifodalanadi va bu ona tilida qanday amalga oshiriladi va h.k. Shunday qilib, birinchi va ikkinchi bosqichlarda o'rganiladigan bu ikki tarjima usuli o'quvchining ingliz tilidan bilimini mustahkamlaydi. Nihoyat 9- sinfga kelib o'quvchilar bu ikki alohida-alohida ko'nikmalarni birlashtiradilar va quyidagi ikki turdagi tarjima ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Birinchisi ingliz tilidagi matnlarni ingliz tilidan ona tiliga aniq-ravon tarjima qilish, ikkinchisi

ingliz tilidagi matnlarni tinglash yoki o'qish va mazmunini ona tilida bayon etish.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarga quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

7 - sinf

- O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQShning geografik xaritasi, uning hududlar (grafliklar, shtatlari, viloyatlari)ga bo'linishi hamda dunyoga mashhur shaharlarini;
- kiyim-kechaklar va kundalik xarid mollarini sotib olish haqidagi ma'lumotlarni;
- O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQSh yoshlarining nimalarga qiziqishlarini;
- bo'sh vaqt (ta'til, sayohat va turizm) larini qanday o'tkazishlarini;
- sport turlari, musobaqa va olimpiada haqidagi ma'lumotlarni.

8 - sinf

- atrof-muhit muammolaridan voqif bo'lishi;
- siyosiy arboblar, davlat rahbarlarini;
- fan va madaniyat sohasi bo'yicha mashhur kishilar (yozuvchi va shoirlari) ning ismi-shariflari hamda ularning mashhur asarlarini;
- O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQShning muzeylari, teatr va kinolari haqidagi ma'lumotlarni;
- O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQSh davlatlarida chop etiladigan gazeta, jurnallar nomlari, tele-radio dasturlar yuzasidan ma'lumotlarni;
- bayramlari va urf-odatlarini.

9 - sinf

- ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarning davlat tizimi, siyosiy partiyalari, saylovlar, bayroq va gerbini;
- fan va madaniyati haqidagi ayrim tushunchalarni;
- ta'lim tizimi haqidagi ma'lumotlarni;
- iqtisodiyotini mamlakatimiz iqtisodiyoti bilan solishtirib o'rganish;
- xatlar (norasmiy) tabriknoma, taklifnoma, yozish va telefonda qanday gaplashish.

**Ingliz tilidan har bir sinfda o'rganiladigan mavzular
taqsimoti va grammatik materiallar
5-sinf (102 soat)**

Mavzu	Grammatika	Nutq faoliyati turlari	Soat
1. Tanishuv: - salomlashuv; salomlashish, hol-ahvol so'rash, xayrlashishni aytish olish; o'zini va boshqa bironvi tanishtirish.	· Alifbo; harflarning talaffuzi; · harf birikmalari; · harf birikmalarining o'qilishi; · Kishilik olmoshi; · "to be" fe'li oddiy hozirgi zamon birlikda; eg. I am · Ko'rsatish olmoshi: "this"; eg. This is	Tinglab tushunish: · mavzular bo'yicha berilgan savol va ma'lumotlarni tushunish; · matnning asosiy g'oyasini (mazmunini) tinglab tushuna olish; · matndan kerakli, qiziqtiruvchi ma'lumotni ajratib olish; · tovushlarni farqlay	16
2. O'zi haqida: -ism; -yosh; -adres; -ona shahri; o'zi hamda o'rtog'i haqida qisqacha ma'lumot bera olish; (Masalan: yashash joyi, kimligi va boshqalar).	· maxsus so'roq gaplar; · egalik sifatleri: my, your; eg. – What's your name? – My name is...; · Kishilik olmoshlari: he, she, you; · "to be" hozirgi zamon ko'plikda; eg. – Where are you from? – I'm from ... - Sanoq sonlar (12 gacha); – How old are you? – I'm twelve. – What's your address? – I live at ... noaniq artikl;	olish va ularni yozuvda ifodalash; · sinfda qo'lla-niladigan iboralarni tushunish. · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish malakasiga ega bo'lish; Gapirish: · oila, sinf xonasi va boshqalarni tasvirlay olish; o'zi yoqtirgan yoki yoqtirmagan narsalar yuzasidan fikrlarini ifoda eta olish. savollarga javob bera olish, savollar bera olish va iltimos bilan murojaat qila olish;	5
3. Oila: - oila a'zolari o'zining (yoki do'stining) oilasi haqida ma'lumot bera	takrorlash. (maxsus so'roq gap, sanoq son); eg. How old is your sister? · egalik sifatleri: his/her.	· tanish mavzular bo'yicha 3-4 luqmadan iborat qisqa suhbatlarda (dialog) va 5-6 jumladan iborat	11

<p>olish; - yashash joylari manzili, xonasi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · Have/has got + plurals. eg. – Have you got any brothers? – Yes, I have. (– Yes I've got.) · there are + cardinal number. eg. – How many people are there in your family? – There are 8 in my family. – What's your father's job? – He is a doctor. · -er, -or ot yasovchi suffikslar; · sifatlar: beautiful, nice, strong, etc. “to be”oddiy hozirgi zamonda. 	<p>monologda ishtirok etish; · salomlashish, xayrlashish, uzr so'rash va</p>	
<p>4.Maktab: -sinfda qo'llaniladigan iboralar; - o'qituvchining ko'rsatmalarini tushunib bajara olish; -bir-biriga murojaat qilib, biror ish-harakatni qilish, qilmaslik to'g'risida ko'rsatmalar berish; -ularni tushunish va bajarish; -o'quv fanlari o'quv fanlarining qaysi birini yoqtirish yoki yoqtirmasligi haqida o'z fikrini ifoda etish; - sinf xonasi va o'quv qurollari: sinf xonasini, uning jihozlari, hajmi va rangini tasvirlash; o'quv qurollarining kimga taalluqligini aniqlash, ularning nomlarini o'z nutqida qo'llash; - maktab hovlisi va binosi: maktab binosi, uning qismlari, hovlisi va kutubxonasini tasvirlay olish.</p>	<p>otlarning ko'plik shakli. buyruq mayli; eg. Stand up. Open your books, etc.</p> <ul style="list-style-type: none"> · modal fe'l: must; eg. You mustn't draw on the wall. · o'rin predloglari: on, at; eg. Write the date on the blackboard. · likes, dislikes. eg. I like... I don't like... . <p>umumiy so'roq gaplar eg. Do you like ...?</p> <ul style="list-style-type: none"> · kishilik olmoshlari: we, they; · Payt predloglari: on, at, in. eg. We have English on Monday. We are free at 4 o'clock. <p>I go to school in the morning.</p> <ul style="list-style-type: none"> · tartib sonlar: (-th suffiksi) · Aniq artikl. eg. The first lesson is Maths. The second... · There is/are qurilmasi. · shaxssiz gaplar; eg. – What time is it? – It is 9 o'clock. · kishilik olmoshi: it; · egalik olmoshlari: our, their; 	<p>kimnidir tug'ilgan kuni bilan tabriklashda xushmuomalalik iboralarini qo'llay olish malakasiga ega bo'lish.</p> <p style="text-align: center;">O'qish</p> <ul style="list-style-type: none"> · alifboni o'rganish; · harf birikmalari; · yangi so'zlarning ma'nosini anglash uchun darslik, lug'atlar va qo'shimcha materiallardan foydalana olish; · matndan kerakli, qiziqtiruvchi ma'lumotni ajratib olish uchun o'qish; · tanish kontekstda berilgan alohida so'zlarni anglay olish; · qisqa iboralarni tushunganligini ko'rsata olish; · 100 tagacha so'zni o'z ichiga olgan qisqa, tanish bo'lgan matn yoki dialogni o'qib, mazmunini tushuna olish. <p style="text-align: center;">Yozuv</p> <ul style="list-style-type: none"> · so'zlarni alfavit tartibida yoza olish; 	16

O'quv dasturi

	<ul style="list-style-type: none"> · sifatlar: big, large, small, light; eg. Our classroom is large and light. · „Ruxsat berish “ma’nosidagi “can” modal fe’li. eg. Can I use your pen? · egalik olmoshlari: mine, his/hers, its, yours. eg. – Is this yours? – Yes, it is. · maxsus so’roq gap (Whose). eg. – Whose pen is it? – Mine.o’rin predloglari: in, on, at. 	<ul style="list-style-type: none"> · 5-6 so’zdan iborat bo’lgan lug’at-diktant yoza olish; · oddiy xabarlarni ko’chirib yozish va so’zlar bilan nuqtalar o’rnini to’ldira olish; 	
<p>5. Sevimli mashg’ulot: o’zi (yoki do’sti) ning kundalik faoliyati to’g’risida suhbatlashish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · oddiy hozirgi zamon; · fe’llarning 3-shaxs birlikdagi shakllari: -s, -es; payt ravishlari: always, never, usually, often, sometimes. 	<ul style="list-style-type: none"> · bosh harflar va nuqtalarni qo’llagan holda oddiy gaplarni yoza olish; · oddiy so’zlarni va o’rganilgan grammatik hodisalarni tarjima qila olish; · o’rganilgan grammatik hodisa yoki namunalar asosida oddiy gaplar tuza olish. · xotiradagi so’zlarni to’g’ri yoza olish; «va», «lekin» bog’lovchilarini nutqda qo’llay olish; 	10
<p>6. Men yoqtirgan narsalar: o’zi (do’sti yoki oila a’zolari) ning yoqtirgan, yoqtirmagan narsalari, sevimli mashg’uloti va u (lar)ni qiziqtirgan narsalar haqida suhbatlashish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · gerund; eg. I like reading. I don’t like writing. My friend likes playing the piano. She doesn’t like reading. 	<ul style="list-style-type: none"> namunalar asosida dialoglar tuza olish; · oddiy jadvallar tuzish va ularni yozma tasvirlab bera olish. 	8
<p>7. Hayvonlar: -uy va sevimli hayvonlar; o’zi (yoki do’sti) ning uy</p>	<ul style="list-style-type: none"> · (to be) fe’li, hozirgi noaniq zamonni Simple Present tense so’roq gap, alternativ 		10

O'quv dasturi

<p>hayvonlariga nisbatan bo'lgan munosabatlarini ko'rsata olish;</p> <p>-o'zining sevimli hayvonlari, ularning ko'rinishi va ranglari haqida suhbatlashish;</p> <p>-yovvoyi hayvonlar;</p> <p>hayvonot bog'idagi yovvoyi hayvonlar haqida, ularning yashash joylari, O'zbekiston va ingliz tilida s o ' z l a s h a d i g a n mamlakatlardagi hayvonlar haqida suhbatlashish.</p>	<p>va tasdiq, maxsus so'rov gaplar;</p> <ul style="list-style-type: none"> · “and” va “but” bog'lovchilarining ishlatilishi; · “likes” va “dislikes” dan keyin keladigan otlarning ko'plikda ishlatilishi; <p>eg. I like cats and dogs. I like dogs but I don't like pigs.</p> <ul style="list-style-type: none"> · Ob'ekt kelishigidagi kishilik olmoshlari; <p>eg. My friend likes rabbits but I don't like them.</p> <ul style="list-style-type: none"> · Ravishlar: happily, softly, noisily, loudly, etc. <p>eg. My dog barks loudly.</p> <ul style="list-style-type: none"> · sifatlar: (ranglar); · hozirgi davomli zamon; <p>eg. Look at the tiger. It is sleeping.</p> <ul style="list-style-type: none"> · sanoq sonlar; · -teen, -ty son yasovchi suffixs; <p>eg. This camel is fifty years old.</p>	
<p>8. Yil fasllari:</p> <ul style="list-style-type: none"> -fasllar; <p>yil fasllarini tasvirlash;</p> <ul style="list-style-type: none"> -oylar; <p>yil fasllariga bo'lingan oylarning bir-biridan farqi, oylar va kunlar haqida suhbatlashish;</p> <ul style="list-style-type: none"> -ob-havo; <p>ob-havo to'g'risida suhbatlashish;</p> <p>ob-havoga bo'lgan o'z munosabati va uning fasllarga xos o'zgarish sababini ko'rsatgan holda ifoda eta olish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · -tartib sonlar; · -shaxssiz gaplar; <p>eg. It is summer. It's very hot in summer in Uzbekistan.</p> <ul style="list-style-type: none"> · “there is/are”qurilmasini takrorlash. <p>eg. There are four seasons in a year. There are 12 months in a year.</p> <ul style="list-style-type: none"> · 31 gacha bo'lgan tartib sonlar. <p>eg. December is the first month of winter and twelfth month of the year.</p> <ul style="list-style-type: none"> · -th tartib son yasovchi suffixsi; · hozirgi davomli zamon; <p>eg. it's raining.</p> <ul style="list-style-type: none"> · I feel + adj. · eg. (happy, sad, hot, cold, tired) I like + noun, because <p>eg. I like summer because it's hot. etc.</p> <ul style="list-style-type: none"> · payt predlogi: on eg.I like + noun, because ... ; <p>eg. I like “Spring</p>	10
Mustaqil ish		4
Takrorlash		4
Nazorat ishi		8

6-sinf (102 soat)

	Grammatika	Nutq faoliyati turlari	Soat
<p>1. Tarjimai hol: - tarjimai hol; -o'zi (yoki do'sti) ning tarjimai holi haqida gapirish; -tug'ilgan kun; -o'zi (yoki do'stlari) ning tug'ilgan kuni to'g'risida gapira olish; -qarindosh-urug'; -o'zi (yoki do'sti) ning qarindoshlari haqida suhbatlashish; -uy ro'zg'or ishlari; o'z onasiga uy ishlarini bajarishda beradigan yordami; - to'g'risida gapirish, uy yumushlarini bajarishga oid savol-javoblarda ishtirok etish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · I was born in ... (namuna sifatida); · oddiy o'tgan zamon. (live), (in 199_, last year) To'g'ri fe'llar; eg. We lived in Navoi street last year. · "to be" fe'li. eg. How old is he/are you? My birthday is (on) the · a lot of + countable nouns. eg. I have a lot of relatives. · oddiy hozirgi zamon; eg. What does your uncle do? · oddiy hozirgi zamon; eg. – What do you do? – I'd like to be ... because · "It takes me ... to... ", "How long does it take ... to... ." iboralari; · Predloglar: before, after; eg. What do you do after classes? · predloglar: next to, behind, in front of, under; · alternativ so'roq gaplar; eg. – Is this a study or a living room? – It's a study. · Sifatlar: (ranglar). eg. What colour is the table? · buyruq gaplarning inkor formasi; eg. Don't sit on my table. · alternativ so'roq gaplar; eg. Is your TV big or small? There is / are qurilmasi. 	<p>Tinglab tushunish:</p> <ul style="list-style-type: none"> · kerakli, qiziqtiruvchi ma'lumotni matndan ajratib olish uchun tinglash; · 150 tagacha so'zni o'z ichiga olgan, tanish so'zlardan iborat xabar va dialoglarni tinglab, asosiy mazmunini tushuna olish; · matnni tinglab yangi so'zlarni o'ziga belgilab qo'ya olish; · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun tinglash malakasiga ega bo'lish. <p>Gapirish:</p> <p>o o'qigan yoki tinglagan matnlari yuzasidan ma'lum bir vazifalar asosida savollarga javob berish, gapira olish;</p>	18

<p>2. Uy: -uy va uning xonalari; -o'zi yashaydigan uy va uning xonalarini tasvirlay olish; -shu mavzu yuzasidan sinfdoshlari bilan suhbatlashish; - uy jihozlari: jihozlarning rangi, shakli, materiali, soni, xonaning qaeida joylashganligi yuzasidan suhbatlashish. -biror ishni bajarishni ta'qiqlashga oid ko'rsatma berish: - mening kechagi ish kunim; -bir kun oldin qilgan ish faoliyati yuzasidan suhbatlashish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · oddiy o'tgan zamon; · o'tgan zamon noto'g'ri fe'llari (oddiy so'zlar): be – was/were, go – went, buy – bought, give –gave va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> · asosiy mavzuga oid qisqa suhbatlarda ishtirok etish, oddiy so'zlar bilan o'z fikr va tuyg'ularini 4-5 ta gap bilan mantiqan to'g'ri ifoda eta olish; · guruhlarda, juftliklarda ishlash jarayonida savollar bera olish, o'z fikrlarini bildira olish; · suhbatdoshiga o'tilgan mavzu yuzasidan qisqa ravishda o'z fikrini gapirib bera olish; <p>O'qish: so'zlarning ma'nosini tushunish uchun ikki tilli lug'atlar yoki darslik oxirida beriladigan lug'atdan foydalana olish;</p>	28
<p>3. Oziq-ovqatlar va taom: -oziq-ovqat magazinida; -bozorda; -bir kun oldin xarid qilgan narsalari (oziq-ovqat mevasabzavotlar va ichimliklar); -ularning og'irligi, narxlari va miqdori to'g'risida suhbatlashish; -yoqimli ishtaha; -taom keltirishni so'rash, taklif qilish, rahmat aytilish va taomning mazasini maqtay olish; nonushta, tushlik va kechki ovqatlanish va taom turlari haqida gapirish; -taom tayyorlash; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi taomlardan birini qanday tayyorlash va ovqatlanishda ishlatiladigan idishlar to'g'risida suhbatlashish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> - oddiy o'tgan zamon; - sanoq sonlar; eg. – how much does it cost? – it costs 50 soums. 400 grams of sugar, please. · a lot of + uncountable nouns; · miqdor: a box of, a packet of, a bottle of, a jar of much, many, some, any, no each; other; · sanaladigan va sanalmaydigan otlar; · “should” maslahat berish ma'nosida; · buyruq gaplar (bo'lishli va inkor); eg. fry the eggs. don't add much salt. some, any, a little, a few; 	<ul style="list-style-type: none"> · o'qishga oid matnlar yoki qisqa hikoyalarni tanlab olib, mustaqil ravishda o'qiy olish va o'qish yuzasidan berilgan topshiriqni bajara olish; · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun matnni o'qiy olish; · 150 tagacha so'zni o'z ichiga olgan bosma yoki qo'lyozma holdagi matnlarni hamda hikoyalarni o'qib mazmunini tushuna olish; · matnning asosiy joylarini yoki tafsilotini anglay olish; · kontekst yoki kalit so'zlardan foydalangan holda notanish so'z ma'nolarini anglab olishni o'rganish; 	20

O'quv dasturi

		<p>Yozuv: 3-4 ta o'zaro bog'langan gaplarni yoddan, kengroq yoza olish;</p>	
<p>4. O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning geografiyasi: -geografik joylashishi; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning jo'g'rofiy jihatdan joylashgan o'rni, ularga chegaradosh mamlakatlar haqida fikr almashish; - yer maydoni va aholisi; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya yer maydoni, aholisi to'g'risida gapirish ularga oid diagrammalar tuzish va uni sharhlab bera olish; - tabiat va iqlimi; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya tabiati, iqlimi haqida gapirish; -ko'pi bilan uchta hududning tabiati va iqlimini taqqoslab xulosa chiqarish; -daryo, ko'l, dengiz, va tog'lar; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya daryo, ko'l va tog'lari to'g'risida gaplashib, ularni bir-birlari bilan taqqoslash.</p>	<p>· predloglar: in, on; · oddiy hozirgi zamon; · to be washed, to be situated (nutq namunasi sifatida); sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari; eg. uzbekistan is larger than great britain. · sifatlarning orttirma darajalari oldidan aniq artiklning ishlatilishi; sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari; daryo, tog', ko'l, okean, dengizlar nomi oldidan aniq artiklning ishlatilishi;</p>	<p>· qisqa diktantlar yoza olish; · gaplarni to'g'ri ko'chirib yoza olish; · o'rganilgan grammatik hodisa yoki namunalar asosida oddiy gaplar yoza olish; · muloqotni amalga oshirish uchun do'stga xat, oddiy xabarlarini yoza olish; · oddiy so'zlarni va o'rganilgan grammatik hodisalarni tarjima qila olish; · tili o'rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foydalanib istaklar bildira olish; · namunaviy matndagi so'z va so'z birikmalarini boshqa so'z va so'z birikmalari bilan almashtirgan holda o'zgartirib yoza olish; · o'qilgan yoki tinglagan matnlari asosida ma'lum bir vazifani yozma bajara olish; · namunalar asosida dialoglar tuza olish; · oddiy jadvallar tuzish, ularni to'ldirish va yozma ravishda tasvirlab bera olish; · so'zni to'g'ri yozganligini tekshirish, unutilgan yoki notanish so'zlarni topish uchun ikki tilli lug'atdan foydalana olish;</p>	20
Mustaqil ish			4
Takrorlash			4
Nazorat ishi			8

7-sinf (102 soat)

Mavzu	Grammatika	Nutq faoliyati turlari	Soat
<p>1. Qishloq va shaharlar: -poytaxt; -O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi mashhur shaharlar va diqqatga sazovor joylar haqida suhbatlashish; -diqqatga sazovor joylar; manzilga qanday borishni so'rash yoki ko'rsatmalar berish; -qishloq; -o'zi yashayotgan qishloq yoki shahar xaqida ma'lumot bera olish.</p>	<p>sifat darajalari; yo'llanma berish maqsadidagi buyruq gaplar; eg. go along the road and turn right. · umumiy so'roq gaplar. eg. can you tell me how to get to the flower shop, park, etc. predloglar: next to, opposite, in front of, go along, turn right (left), the building on the right, as far as, until you get to;</p>	<p>Tinglab tushunish: · o'tgan va kelasi zamondagi voqealarni o'z ichiga olgan parchalar, shuningdek qisqa tasviriy hikoyalarni tinglab tushuna olish; · matnning asosiy g'oyasini (mazmunini) tinglab tushuna olish; · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun tinglash. · o'rta tezlikka yaqin bo'lgan va ovozga tabiiy shovqin</p>	15
<p>2. Sog'liq: - insonning tashqi qiyofasi va tana a'zolari; o'zining (yoki do'stining) tashqi qiyofasi haqida gaplasha olish; tana a'zolari to'g'risida gaplashish; - shifokor huzurida; -sog'ligi haqida shifokorga murojaat qila olish; -shifokorga borishdan maqsadini aytish, kasallik belgilarini tushuntirib bera olish;</p>	<p>· oddiy hozirgi zamon; · jismoniy qobiliyat vazifasidagi "can" modal fe'li; eg. can you show me your ear, nose, etc. · jismoniy qobiliyat vazifasidagi "can" modal fe'li; eg. – can you move your leg? – i can't move it. i can't walk. etc. · ruxsat berish vazifasidagi "can" modal fe'li; eg. – can i take a tablet? – yes, you can. · have got (kasalliklar bilan); eg. – how long have you had a pain in your arm? – i've had it since monday (for two days). · noto'g'ri fe'llarning sifatdosh 2 shakli; eg. go – went – been, have – had – had, take – took – taken, etc.</p>	<p>berilgan, kam miqdordagi notanish so'zlardan iborat matnlarni tinglab tushuna olish; Gapirish: · dialogik va monologik nutqlarda ishtirok eta olish; · bahs-munozara yurita olish; · voqea-hodisalarni gapirib bera olish. · mavzular yuzasidan qisqa suhbatlarda qatnashish. · turli holat, guruh va juftliklarda kommunikativ vazifalarni bajarishda fikrlar almasha olish; fikr va tuyg'ularni ifoda yetish va ularning sababini tushuntirib bera olish.</p>	10

<p>3. Kiyimlar: -kiyimlar ; turli xil kiyimlar (ust, bosh, oyoq kiyimlar), ularning ranglari, o'lchamlari hamda materiali haqida suhbatlasha olish; -milliy kiyimlar; O'zbek va AQSh, Buyuk Britaniyaliklarga xos bo'lgan milliy kiyimlar, ularning ko'rinishi, farqlari, ranglari, materiallari haqida suhbatlashish; -xarid; sotib olmoqchi bo'lgan kiyimlar haqida sotuvchi bilan muloqatda bo'lib ularning narxini, o'lchamini so'ray olish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> · tasdiq so'roq gaplar; eg. – it's lovely, isn't it? – yes, it is. · faqat ko'plik shaklda ishlatiladigan otlar. eg. trousers, pants, jeans, glasses, etc. · oddiy hozirgi zamon. · yaqin kelajak ish harakatini bildiruvchi “to be going to do smth” iborasi; eg. i'm going to buy a new dress. · “that”, “because” bog'lovchili qo'shma gaplar; eg. I think that it suits you / it fits you, etc. · noaniq olmoshlar: one, some, any; eg. -i'm going to buy a shirt. can you show me the one over there? – have you got brown shoes? – yes, i've got some. · “too” („ham“ va „keragidan ortiq“ ma'nosida). · so'z yasash (noun + noun); (verb + ing) · ravishlarning gapdagi o'rni; so that. eg. – why did you go there? – so that I could buy a new pen; 	<p>O'qish:</p> <ul style="list-style-type: none"> · ikki tilli yoki darslik oxirida beriladigan lug'atlardan foydalana olish; · taxminan 200 ta so'zdan iborat tasviriy xarakterdagi hikoyalarni, yozma materiallarni o'qib, mazmunini tushuna olish; · soddalashtirilgan va musaqil o'qishga mo'ljallangan materiallar (ko'r-satma, hikoya va axborot beruvchi ma'lumotlar) ni o'qiy olish; · grafik va jadvallarni o'qib, ma'lumotlarni ajrata olish; 	<p>18</p>
<p>4. Sport: - sport turlari; bir-birlari bilan umumiy va milliy sport turlari va ularga nisbatan bo'lgan qiziqishlari haqida suhbatlashish; - musobaqalar; maktab, tuman, viloyat va respublika miqyosida o'tkaziladigan sport musobaqalari haqida suhbatlashish; -olimpiada;</p>	<ul style="list-style-type: none"> · sifatlarning orttirma darajasi; eg. The most popular sport in Uzbekistan is Kurash. · sifatlarning qiyosiy darajasi: than, as...as · sifatlar: «favourite, popular, etc.»; · eg. Running is a popular track sport. High jump is my favourite sport. · do va play · So do I. I do too. I don't 	<ul style="list-style-type: none"> · matnning asosiy g'oyasini (mazmunini) tushunish uchun o'qiy olish. · namunalar yordamida o'qilgan matn mazmunining qisqacha bayonini (og'zaki yoki yozma shaklda) bera olish; · matnni umumiy ma'lumot olish uchun o'qiy olish; · kerakli, qiziqtiruvchi ma'lumotni matndan 	<p>18</p>

O'quv dasturi

<p>olimpiada o'yinlari, g'olib bo'lgan mashhur sportchilar va komandalar haqida muloqot qila olish.</p>	<p>either. I do. I don't.</p> <ul style="list-style-type: none"> · hozirgi tugallangan zamon; <ul style="list-style-type: none"> eg. Have you ever played tennis? – Have you ever seen basketball matches? – Yes (no I haven't). – I saw ... · Oddiy kelasi zamon; · eg. Will you go to see the football match next week? · very fast, very helpful · to be going to do smth. eg. When is the next championship (going to be)? Who is going to play next week? Oddiy o'tgan zamon; eg. Irani was second in the First World Kurash Championship in 1999. 56 countries took part in this championship. 	<p>ajratib olish uchun o'qiy olish;</p> <p>zavq olish uchun matnlarni o'qiy olish.</p>	
<p>5. O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning ma'muriy bo'linishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - viloyatlar; -tumanlar; -xududlar; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya ma'muriy bo'linishi haqida suhbatlashish; 	<ul style="list-style-type: none"> · There is/are qurilmasi. eg. There are 15 regions in Uzbekistan. · oddiy hozirgi zamon; · eg. The UK has four parts: England, Scotland, Wales and Northern Ireland. · hozirgi zamon majhul nisbati; · eg. Ireland is divided into two parts: North and South. 	<p>Yozuv:</p> <ul style="list-style-type: none"> · o'zi to'g'risida ma'lumot, his-tuyg'u va fikrlarni ifoda qilish uchun o'zaro bog'langan gaplarni yoza olish; · tugallanmagan gaplarni o'rganilgan 	15
<p>6. Bo'sh vaqt:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ta'tilda; O'quvchilar yaqinlashib kelayotgan ta'tilda qilmoqchi bo'lgan ishlarining rejalari haqida gaplashish, ta'tilni qanday o'tkazish to'g'risida taklif va maslahatlar bera olish; - sayohat va turizm; 	<ul style="list-style-type: none"> · maslahat berish uchun "should" ning ishlatilishi; · eg. You should visit the tulip fields/Bukhara, etc. · to be going to do smth. eg. – What are you going to do during your summer holidays? – I'm going to visit my grandparents. 	<p>grammatik hodisalar yoki mazmunan mos so'zlar bilan to'ldira olish va ularni yakunlay olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> · o'qigan yoki tinglagan matnlari asosida ma'lum bir vazifani yozma bajara olish; · o'rganilgan grammatik hodisa yoki namunalar 	10

O'quv dasturi

<p>O'zbekistondagi mashhur joylarga, tabiat qo'yniga qilgan sayohatlari to'g'risida gapirish, keyingi yil uchun sayohat rejalarini tuzish, qaysi transportda sayohat qilishni afzal ko'rishi va qiziqarli turistik voqealar haqida suhbatlashish;</p>	<p>– I'm going to the mountains to have a rest. · re- , un - old qo'shimchalari; · Predloglar: <u>by</u> bus <u>by</u> air, <u>on</u> foot, etc.;; eg. – How can I get to Samarkand? – It's easier by air. · Oddiy hozirgi zamon; · eg. – What do you do in your free time? – I work on the computer. – I play video games. – I do kurash, etc. · Oddiy o'tgan zamon; · eg. – What did you do in your free time last week? – I went to Shakhrisabz to see the historical places. · used to; · I would (I'd) rather (do); · too tired to do; · could you ..., would you ... ; · who, which, whom, where bog'lovchili qo'shma gaplar;</p>	<p>asosida gaplar yoza olish; · yangi kontekstlarda grammatikaning asosiy elementlarini ishlatib, to'g'ri so'z tartibini qo'llay olish; · tinish belgilari va til qurilmalaridan to'g'ri foydalangan holda fikrlarni to'g'ri ifoda eta olish; · tili o'rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foydalanib istaklar bildira olish; · qisqa tasviriy xarakterdagi matnlar yoza olish; · matndagi ma'lumotlarni turkumlarga ajratib yoza olish; · namunalar asosida dialoglar tuza olish; jadvallar tuzish, ularni to'ldirish va yozma ravishda tasvirlab bera olish;</p>	
Mustaqil ish			4
Takrorlash			4
Nazorat ishi			8

8-sinf (102 soat)

Mavzu	Grammatika	Nutq faoliyati turlari	Soat
<p>1. O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning san'ati, mashhur kishilari: - san'ati; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi ba'zi san'at turlari haqida gaplashish; -O'z qiziqishlarini (sababini ko'rsatgan holda) ifoda eta olish, o'zbek va ingliz musiqasi, adabiyotini taqqoslash; -O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi zamonaviy kino va pesalarning mazmunini muhokama qilish, muzeylarni tasvirlash; - h a y k a l t a r o s h l i k ; shuningdek, rassomchilik haqida soddarroq atamalar ishtirokida fikrlar almashish; -mashhur kishilari; A.Temur, M.Ulug'bek, A.Navoiy, V. Shekspir kabi tarixiy shaxslar to'g'risida ma'lumot berish va ularning ishlari to'g'risida o'z fikrlarini ma'lum darajada bayon qila olish;</p>	<p>oddiy o'tgan zamon; eg. Some years ago Uzbek music was not so modern. · O'tgan zamon majhul nisbati. eg. "Hamlet" was written by Shakespeare. · Tugallangan o'tgan zamon. (before, after, when, by) eg. After Shakespeare had written "Hamlet" he moved from Stratford to London. · istak mayli (hozirgi yoki kelasi zamon); eg. If I were him I would be worried. · Would you like to ... · I'd like to ... · Sorry, I can't. · A big man with long hair ... · It makes me happy (sifat) · It makes me dance (fe'l) · O'zlashtirma gap: buyruqlar e.g. He told her to say her alphabet. He asked her to say it. He ordered her to do it. · o'tgan zamon majhul nisbati; eg. The State museum of Fine Arts was founded in 1918. Works of art were added to the collection. could be/might be / perhaps/may be qiyoslash: It looks like New Year decorations. · oddiy o'tgan zamon; eg. A.Temur was a great statesman. · tugallangan o'tgan zamon; eg. Ulugbek observed about</p>	<p>Tinglab tushunish: · tabiiy sharoitdagi nutq xususiyatlari (ikkilanish, gapni boshlashda qo'llaniladigan "xo'p, yaxshi, demak" kirish so'zlari va h.k.) ishtirok etgan dialog va monologlarni tinglab tushuna olish; · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun tinglash. · o'rta tezlikka yaqin bo'lgan va ovozga tabiiy shovqin berilgan, kam miqdordagi notanish so'zlardan o'z ichiga olgan matnlarni tinglab tushuna olish; · kerakli, qiziqtiruvchi ma'lumotni matndan ajratib olish uchun tinglash; · o'tgan va kelasi zamondagi voqealarni o'z ichiga olgan parchalar, shuningdek, qisqa tasviriy hikoyalarni mazmunini tinglab tushuna olish; Gapirish: · matndan batafsil ma'lumot olish va asosiy g'oyasini gapirib berish uchun tinglab tushunish; · turli holat, guruh va juftliklarda kommunikativ</p>	29

O'quv dasturi

	<p>3000 stars. Nobody had done that before that time.</p>		
<p>2. Bayram va urf-odatlari: O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya bayram va urf-odatlari yuzasidan ma'lumotga ega bo'lish, suhbatlashish;</p>	<ul style="list-style-type: none"> · There is/are qurilmasi; · oddiy hozirgi zamon; · voqealarni oldindan aytishda “will” ning ishlatilishi; <li style="padding-left: 20px;">eg. There will be regular rockets to other planets. · o'tgan zamon modal fe'llari (could, might), maybe, perhaps + hozirgi zamon; · eg. There might be life on Mars. There could be green people on Mars. Maybe there are Martians. Perhaps Mars has water. There may be humanoids. · May (ehtimollik), · too; very often; pobably; certainly; <li style="padding-left: 20px;">e.g. You're probably right. · Much (pozitsion). · sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari; · hozirgi tugallangan zamon (natijani tasvirlashda); <li style="padding-left: 20px;">eg. The Aral Sea has shrunk. The desert has increased. · o'tgan zamon majhul nisbati (jarayonni tasvirlash); · eg. Water was diverted. Dams were built. 	<p>vazifalarni bajarishda fikrlar almasha olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> · bahs - mulohazalar yurita olish; · o'tgan va kelasi zamon-dagi voqea-hodisalarni gapirib bera olish; · mavzular yuzasidan qisqa suhbatlarda qatnashish, fikr muloxazalarini tushuntirib bera olish; · dialogik va monologik nutqlarda ishtirok eta olish; 	18
<p>3. –Olam -Atrof muhit muammolari; atrof muhit muammolari to'g'risida fikr almashish, bu muammolarning kelib chiqish sababini gapirib bera olish va o'z fikrini asoslash. Boshqa mamlakatlarning shunga o'xshash atrof-muhit</p>	<ul style="list-style-type: none"> · oddiy hozirgi zamon; · hozirgi va o'tgan zamon majhul nisbatlari; · oddiy o'tgan zamon; · holat va payt ravishlari. · So'z yasash: celebrate + tion + celebration · sanalar; · sifatlovchilar: all of; some 	<ul style="list-style-type: none"> · to'g'ri talaffuz va intonatsiya bilan gapira olish. · mavzular yuzasidan fikr va ularni tushuntirib bera olish; · o'qilgan matnlar yuzasi-dan dialogik va monologik 	13

O'quv dasturi

<p>muammolarini taqqoslay olish;</p>	<p>of; lots of; plenty of; most of; none of; a bit of · Both of all · As a result; for eg. I went there for a party. It is hunted for its skin.</p>	<p>nutqlarda ishtirok eta olish malakasini egallay olish; O'qish: · taxminan 250 ta so'zdan iborat tasviriy xarakterdagi hikoyalarni o'z ichiga olgan turli yozma materiallarni o'qib tushuna olish;</p>	
<p>4.Ommaviy axborot vositalari: - matbuot (gazeta va jurnallar); gazeta va jurnallardan olingan parchalarni o'qib tushuna olish va ularning asosiy mazmuni haqida suhbatlashish; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya-dagi gazeta va jurnallarni taqkoslab ularning farqlarini muhokama qilish, internet tushunchasi. -televidenie va radio; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniya televideniya va radiosi haqida suhbatlashish, ularning kanal va dasturlarida beriladigan, yangiliklar, ijobiy yoki salbiy ma'lumotlarni muhokama qilish, teleradio dasturlariga qiziqqan mavzularni kiritish haqida taklif berish;</p>	<p>· Zamonlarni takrorlash; · ko'chirma va o'zlashtirma gaplar: he said he reads; he said he was; he said that he was ... · same as ... different from ... axborotda ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning ishlatilishi; eg. The president <u>gave</u> a speech at the opening of the new city hall. He <u>said he was happy</u> the new building was ready. «<u>I congratulate</u> you on finishing this excellent building ahead of time. · tugallangan hozirgi zamon va oddiy o'tgan zamonni o'zlashtirma gapda ishlatish; · e.g. He said he had enjoyed the film. tugallangan o'tgan zamon: After I had ... I did ... ; Ingliz tilining AQSh va Britaniya variantidagi farqlar;</p>	<p>· soddalashtirilgan va mustaqil o'qishga mo'ljallangan materiallar (ko'r-satma, hikoya va axborot beruvchi ma'lumotlar) ni o'qiy olish; · turli xil fikrlarni o'z ichiga olgan matnlarning mazmunini, murakkab gap va yangi so'zlarni o'z ichiga olgan tanish mavzudagi matnlarni tushuna olish; · grafik va jadvallarni o'qib, ma'lumotlarni ajrata olish; · matnni batafsil ma'lumot olish uchun o'qiy olish; · ikki tilli yoki darslik oxirida beriladigan lug'atlardan foydalana olish; · mustaqil o'qishga mo'ljallangan hikoyalarni va axborot beruvchi ma'lumotlarni o'qiy olish; · namunalar yordamida o'qilgan matn mazmunining qisqacha bayonini (og'zaki yoki yozma shaklda) bera olish; · kerakli ma'lumotlarni olish uchun matnni o'qib tushunish; Yozuv:</p>	26

O'quv dasturi

		<ul style="list-style-type: none"> · o'qigan, tinglagan matnlari yoki ko'rgan-eshitgan voqealari asosida ma'lum bir vazifani yozma bajara olish; · o'zi to'g'risida ma'lumot, his-tuyg'u va fikrlarni ifoda qilish uchun o'zaro bog'langan gaplarni yoza olish; · tinish belgilari va til qurilmalaridan to'g'ri foydalangan holda fikrlarni to'g'ri ifoda eta olish; · yozuvda hozirgi, o'tgan va kelasi zamon voqea-hodisalarini tasvirlay olish; · oddiy so'zlar, o'rganilgan grammatik hodisalar va qisqa matnlarni tarjima qila olish; · tugallanmagan gaplarni o'rganilgan grammatik hodisalar yoki mazmunan mos so'zlar bilan to'ldira olish va ularni yakunlay olish; · qisqa tasviriy xarakterdagi matnlarni yoza olish; · olingan ma'lumotlar asosida qisqa hisobotlar yoza olish; · ko'chirma va o'zlashtirma gaplar yoza olish; · ko'rsatma, yo'llanma va takliflar yoza olish; · namunalar asosida dialoglar tuza olish; o'rganilgan grammatik hodisalar va qisqa matnlarni tarjima qilish; 	
Mustaqil ish			4
Takrorlash			4
Nazorat ishi			8

9-sinf (102 soat)

Mavzu	Grammatika	Nutq faoliyati turlari	Soat
<p>1. O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning davlat tizimi: - davlat tizimi; bu mamlakatlarning davlat tizimi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish, ularning bayrog'i, gerbi, konstitutsiyasi haqida boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lish; - boshqaruv idoralari; AQSh, Buyuk Britaniya va O'zbekistondagi qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi tashkilotlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish; - ta'lim tizimi; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi ta'lim tizimini o'rganish va ularni taqqoslash, har bir tizimning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida o'z fikrlarini ifoda eta olish; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi dars jadvali va o'quv fanlarini taqqoslash, darslarning qancha davom etishi va vaqti haqida suhbatlashish;</p>	<ul style="list-style-type: none"> · oddiy hozirgi zamon; · oddiy o'tgan zamon; · o'tgan zamon majhul nisbati; · hozirgi tugallangan zamon; · o'tilgan grammatik materiallarni takrorlash; · o'tilgan grammatik materiallarni takrorlash; · Who, which, where, whom bog'lovchili murakkab gaplar; · murakkab to'ldiruvchi: I want you to ... ; eg. I want you to help me 	<p>Tinglab tushunish: · har xil fikrlar ifoda etilgan turli tipdagi nutqni tinglab tushuna olish; · multimediya, audio-video lavhalar asosiy mazmunini tushunish; · matnning asosiy g'oyasini (mazmunini) tinglab tushuna olish; · kerakli, qiziqtiruvchi ma'lumotni matndan ajratib olish uchun tinglab tushunish; · matni batafsil ma'lumot olish uchun tinglab tushunish. · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun tinglash. · tanish va tarkibida qisman notanish bo'lgan materiallarni tinglash, turli muomalalar hamda his-hayajonli gaplarni tushunish; telefonidagi suhbatni tushunish va savollarga javob berib, muloqotda ishtirok eta olish;</p>	28
<p>2. Men yoqtirgan kasb. O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyadagi kasblar, o'zi orzu qilgan va sevgan kasbi to'g'risida gapirish, nima uchun litsey yoki kollejni tanlaganligini ayta olish, o'zining kelgusidagi orzu va rejalari haqida fikrlarini bayon etish,</p>	<ul style="list-style-type: none"> · oddiy hozirgi zamon; · Wish/hope; · Istak mayli (3); · I would like to be I hope to... . ; eg. I hope to study at University. I hope to travel to foreign countries. · I hope to succeed; · Hozirgi tugallangan zamon; 	<p>Gapirish: · ommaviy axborot vositalarida berilgan matnlarni gapirib bera olish; · turli holat, guruh va juftliklarda kommunikativ vazifalarni bajarishda fikrlar almasha olish; oldindan tayyorlanmagan</p>	

<p>AQSh, Buyuk Britaniyada va O'zbekiston maktablarida mavjud tashhis yo'nalishlari, psixologlar ish jarayonlariga doir ma'lumotlar almashish.</p>	<p>eg. Cotton production has increased from ... tons in 1990 to... tons in 1999.</p> <ul style="list-style-type: none"> · o'tilgan grammatik materiallarni takrorlash; 	<p>mavzular bo'yicha suhbat qila olish (m-n.: maktabga tashrif buyuruvchilar bilan suhbat qura olish);</p>	
<p>3. Iqtisodiyot: - sanoat; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning asosiy iqtisodiy tarmog'i bo'lgan sanoat to'g'risida suhbatlashish; O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning iqtisodini rivojlantirish uchun qanday sanoat maxsulotlari foydali ekanligini muhokama qilish. Ular uchun yana qanday maxsulotlarni ishlab chiqarish kerakligi to'g'risida o'z takliflarini berish; -Maishiy xizmat; Maishiy xizmat turlari to'g'risida suhbatlashish;</p>	<ul style="list-style-type: none"> · hozirgi davomli zamon; eg. The financial services sector such as banks and insurance is growing. · "to have smth done (to get smth done)" iborasi. eg. I have my hair cut very often. · oddiy hozirgi zamon; · sifat darajalari; · hozirgi tugallangan zamon; · hozirgi davomli zamon; · "to be worth ... ing" iborasi; · oddiy o'tgan zamon; · oddiy hozirgi zamon; · sifat darajalari; · hozirgi tugallangan zamon; · hozirgi davomli zamon; o'tilgan grammatik materiallarni takrorlash; 	<ul style="list-style-type: none"> · talaffuz va ohang me'yorlariga rioya etgan xolda gapira olish; · audio-video tasma, CD, m u l t i m e d i y a , fonogramma, ovozli film lavhalarini orqali eshitgan matnlar asosiy mazmunini hikoya qilib bera olish. o'qish, turli vazifalarga ko'ra dialogik va monologik nutqlarda ishtirok eta olish; O'qish: · 0,5 bet, 20-30 foizgacha o'rganilmagan so'zlarni o'z ichiga olgan matnlarning asosiy mazmunini o'qib tushuna olish; · matnni umumiy ma'lumot olish uchun o'qiy olish; · matnning asosiy g'oyasini (mazmunini) tushunib o'qish; · ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun matnni o'qiy olish; · 10 daqiqada 350 so'zdan iborat matnni o'qiy olish; · video tasma, CD, multimediya film lavhalaridagi matnni o'qiy olish; · o'qish orqali leksik va grammatik materiallarni takrorlash hamda ularni nutqda qo'llay olish. 	17

<p>4. Aloqa tizimi: e'lon, reklama yozish bo'yicha o'quvchilarni o'rganayotgan tilida tushunishga yo'naltirish; o'rtog'lariga tashakkurnoma va taklifnomalar yo'llash yoki o'ziga zarur bo'lgan narsani xat orqali so'rash; maktab devoriy gazetasiga oddiy maqola yozish, maktab hayotida uchrab turadigan voqealarni ifodalovchi e'lonlar yozish va yechish uchun krassvordlar taklif qilish. - aloqa bo'limida; aloqa bo'limi xodimi bilan konvertga manzilni qanday yozish va o'rtog'iga qanday qilib sovg'a jo'natish to'g'risida savol-javob qilish; -telefonda; telefon orqali kerakli manzilga qanday qilib yetib borishni so'rash, tushunilmagan fikrni qaytarib aytishni so'rash, o'rtog'i bilan uchrashuv belgilash, o'rtog'ini biror yerga taklif qilish, kundalik voqealar to'g'risida suhbat qurish va boshqalar; -internet, elektron pochta; internet, elektron pochta tizimi ma'lumotlar berish, ularning ishlash prinsipi haqida ingliz tilida tanishtirish;</p>	<p>ko'chirma va o'zlashtirma gaplar; eg. Please give him a message. Tell him I can't come..., etc. He says he didn't see her..., etc. · o'tilgan grammatik materiallarni takrorlash; · "to be worth seeing" iborasi; · "It takes me ... to" iborasi; See somebody doing ... · See somebody do ...</p>	<p>Yozuv: · o'qilgan yoki eshitilgan matndan gapirib berish uchun reja yoki tezis yoza olish; · xat (norasmiy), e-mail, eslatma, xabar, hisobot, maqola va kundaliklarni yozishning usul va shakllarini to'g'ri qo'llay olish; · o'tilgan va erkin mavzular asosida diktant, insho yoza olish; · xorijiy tildan ona tiliga, ona tilidan xorijiy tilga 100-120 so'zli o'rta qiyinlikdagi matnlarni yozma ravishda tarjima qila olish. · tinish belgilari va til qurilmalaridan to'g'ri foydalanilgan holda fikrlarni aniq va to'g'ri yozma ravishda ifoda eta olish; · 5-8 sinflar davomida o'rganilgan yozuv texnikasini yanada rivojlantirish malakasiga ega bo'lish; · o'zgalarning fikrlarini taqqoslash va ularning fikrlaridan xulosalar chiqarib, o'z fikrini yoza olish; o'tilgan va erkin mavzular asosida diktant, insho yoza olish;</p>	21
Mustaqil ish			4
Takrorlash			4
Nazorat ishi			8

Ingliz tili fanidan ko'rgazmali va ko'rsatmali materiallar

1. **Ingliz tili fanidan 5-9-sinflar bo'yicha mavzular kesimida 35 ta slayd.**
2. "O'zbekiston va AQSh, Buyuk Britaniyaning mashhur yozuvchi va siyosiy arboblari" haqida plakatlar 10 ta.
3. Ingliz tili grammatikasi bo'yicha plakatlar 15 ta.
3. 6,7,8-sinflar bo'yicha elektron darsliklar.
4. 5,6,7,8,9-sinflar bo'yicha o'quv filmlar.
5. 5,6,7,8,9-sinflar bo'yicha darslik kassetalari.